



G'afforova Barchinoy Omonboy qizi
Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (Fizika va astronomiya)
mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: prof. D.I.Kamalova
Navoiy davlat pedagogika instituti

XALQARO TADQIQOT DASTURLARINING AHAMIYATI

Respublikamizda uzlusiz ta'larning rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartsharoit yaratilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjalarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish va ta'limga oluvchilarini xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va tadqiqotlarda faol ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, bunday tadbirlarga olyi ta'limga o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak fan o'qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmashuammolaridan biri sanaladi.

Shuni hisobga olgan holda o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'lumi tizimida ta'limga o'qitishni baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lumi vazirligining 2017-yil 16-sentabrdagi "2017-2018 o'quv yilida ta'limga o'qitishni baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida"gi 299-sonli buyrug'ining qabul qilinishi muhim qadamlardandir. Ushbu hujjalarning ijrosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta'limga o'qitishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'limga o'qitishni baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Hozirgi vaqtida nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan TIMSS, PISA, PIRLS va TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarning standartlarida qayd etilgan kompetensiyalar hamda bizning mamlakatimizda xalqaro baholash dasturlarining o'tkazilishi ta'limga o'qitishni samarali ishlar tashkil etilmoqda. Ushbu nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti [1] (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) 1961-yildan faoliyat yuritib molivayi sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, ushbu tashkilot negizida ko'plab mamlakatlar ta'luming asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiyy o'rta ta'limga o'qitishni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) [2] – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ta'limga o'qitishni murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun mutaxassislar, ya'ni raqobatbardosh kadrlar dastlab maktablar savod chiqarib shaxs sifatida shakllanadi. Shu ma'noda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotidek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'limga o'qitishni qancha mablag' sarflyotgani va ular nechog'li samara berayotganiga qiziqdi va ishtirokchi davlatlar ta'limga o'qitishni reytingini aniqlashga muvaffaq bo'ldi.

Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi. "Xalqaro baholash tizimi" fanini pedagogika institutlarining bakalavriat ta'limga o'qitishni talabalari tomonidan puxta o'rganishlari bugungi kunning zarurati hisoblanadi. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar "Xalqaro baholash tizimi" ning nazariy va amaliy mazmunini o'z ichiga olgan bo'lib, uzlusiz ta'limga o'qitishni barcha bo'g'inalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda kasbiy ta'limga o'qitishni qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

Mamlakatimizda ta'limga o'qitishni tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasbhunarlarini egallashi, jismonan va ma'nana yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini



yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hamda 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish vazifalari belgilab berildi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta’lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud.

O‘zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume’tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta’lim olishini ta’minalash hamda olgan bilimlarini amalda samarali qo’llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) turli sohalarda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib boradi. Jumladan, ushbu tashkilot negizida ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiyy o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta’lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar avvalo maktablarda, oddiy sinfxonalarda ta’lim-tarbiya olib, haqiqiy hayotda o‘z o‘rnini topishidir. Shu ma’noda OECD tashkiloti a’zo davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani va ular nechog‘li samara berayotgani reytingini tuzishni maqsad qildi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqlishi ortib, bugungi kunda tashkilotga a’zo davlatlar soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan milliy tizimni yaratish vazifalari belgilangan [3]. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi doirasida o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida urg‘u bergen holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarining bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shu asosda o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (PISA), o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (PIRLS), o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi (TIMSS), rahbar va pedagog kadrlarning umumiyy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim berish muhitini hamda ularning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha xalqaro baholash (TALIS) dasturlarida ishtirok etishga kirishildi. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazga xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish, umumiyy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minalash, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar yuklatildi. Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan PISA singari xalqaro baholash dasturlari O‘zbekistonda ilk marta o‘tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o‘tkazish soha xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Bu borada pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘sish maqsadida avvalgi tayyorlangan metodik qo’llanmalar, topshiriqlar to‘plami, mashq daftarlari tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sodan qarori Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida chiqarilgan.

Foydalanimanilgan adabiyotlar:

www.oecd.org – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining rasmiy sayti.

PISA 2021. Mathematics Framework (first draft), 45th meeting of the PISA Governing Board. 23-25 April. 2018. Stockholm. Sweden.

A.Avloniy ilmiy tadqiqot institute. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish miliy markazi hamkorligida tashkil etilgan “Xalqaro baholash dasturlari va ta’lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. 1-qism. Toshkent. 2022 y. 406 bet.